

**QARAQALPOG'ISTON  
RESPUBLIKASIDA  
QURILISH ISHLARI**

**2023- YIL  
YANVAR- FEVRAL  
OYLARI**

2023-yilning yanvar-fevral oylarida, Qoraqalpog'iston Respublikasida jami **618,3** mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati 2022-yilning yanvar- fevral oylariga nisbatan **89,1 %** ni tashkil etdi.



## Qurilish ishlari hajmining tarkibi, % da

Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.



Yirik qurilish  
tashkilotlari


Norasmiy sektor

Kichik korxona  
va mikrofirmalar

## Qurilish ishlari 2023- yil yanvar- fevral oylari uchun

	Qurilish ishlari, mlrd. so'm	Shu jumladan:		
		Yirik qurilish tashkilotlari	Kichik korxona va mikrofirmalar	Norasmiy sektor
Qoraqalpog'iston Respublikasi	618,3	29,8	438,6	149,9
<b>Nukus sh. tumanlar:</b>	<b>185,2</b>	<b>2,6</b>	<b>164,7</b>	<b>17,9</b>
Amudaryo	36,3		20,2	16,1
Beruniy	42,7		22,6	20,1
Bo'zotov	8,6		7,5	1,1
Qorao'zak	11,7	0,2	9,9	1,6
Kegeyli	6,6	0,3	4,4	1,9
Qo'ng'iroq	31,9	8,1	19,2	4,6
Qonliko'l	9,9		5,9	4,0
Mo'ynoq	39,0	14,9	21,3	2,8
Nukus	36,3		23,3	13,0
Taxiatosh	23,5	3,0	16,4	4,1
Taxtako'pir	14,4		12,3	2,1
To'rtko'l	74,0		54,8	19,2
Xo'jayli	25,2		16,6	8,6
Chimboy	24,5		8,4	16,1
Shomanay	6,0		3,2	2,8
Ellikqal'a	42,5	0,7	27,9	13,9

2023- yilning yanvar- fevral oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 29,8 mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2022- yilning yanvar- fevral oylariga nisbatan 76,4 % ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 0,9 % punktga kamayib, 4,8 % ni tashkil etdi.



**MA'LUMOT UCHUN:** Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Mo'ynoq tumani (tumandagi jami qurilish ishlari hajmining 38,2 % i yoki 2022- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 106,3 %), Qo'ng'irot tumani (tumandagi jami qurilish ishlari hajmining 25,5 % yoki 2022- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 42,9 %) va Taxiatosh tumani (tumandagi jami qurilish ishlari hajmining 12,9 % i yoki 2022- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 106,8 %) ga to'g'ri keldi.

2023- yilning yanvar- fevral oylarida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 70,9 % i to‘g‘ri kelib, 2022- yilning yanvar- fevral oylariga nisbatan 1,8 % punktga kamaygan. Shuningdek, ular hissasiga to‘g‘ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2022- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 88,2 % ni tashkil etgan holda 438,6 mlrd. so‘m miqdorida qayd etildi.

## Kichik korxona va mikrofirmalar, ulushi, % da




70,9

2023- yil  
yanvar- fevral

72,7

2022- yil  
yanvar- fevral




**MA’LUMOT UCHUN:** Joriy hisobot davrida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan eng yuqori hajm ko‘rsatkichi Nukus shahri (164,7 mlrd. so‘m yoki umumiyligi hajmga nisbatan ulushi 88,9 %), To‘rtko‘l tumani (54,8 mlrd. so‘m yoki umumiyligi hajmga nisbatan ulushi 74,0 %), Ellikqal’a tumani (27,9 mlrd. so‘m yoki 65,8 %) ga to‘g‘ri keldi.

Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi **24,3 %** ni tashkil etdi yoki **149,9 mldr. so'm** miqdorida qayd etildi. 2022- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan **95,7 %** ni tashkil etdi.



### Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, ulushi foizda

Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **606,1** mldr. so'm qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan esa **12,2** mldr. so'm qurilish ishlari bajarildi. Ularning respublikadagi ulushi mos ravishda **2,0 %** va **98,0 %** ni tashkil etdi.



**Umumiy hajmdan yangi qurilish,  
rekonstruksiya, kengaytirish,  
texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi  
2023- yil yanvar- fevral oylarida**



Bajarilgan qurilish ishlaring katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlaring **64,2 %** i yoki **396,7** mlrd. so'm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

**5,7 %**

Yirik qurilish tashkilotlari bo'yicha yangi qurilish hisobidan **22,6** mlrd. so'mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi **5,7 %** ni tashkil etdi.

Kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha yangi qurilish hisobidan **225,7** mlrd. so'm yoki jami kichik korxona va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi **56,9 %** ni tashkil etdi.

**56,9 %**

**37,4 %**


Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi **148,4** mlrd. so'm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi **37,4 %** ni tashkil etdi.



# Shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari 2023- yil yanvar-fevral oylarida

	Qurilish ishlari, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da	Ulushi, % da
Qoraqalpog'iston Respublikasi	618,3	89,1	100,0
Nukus sh.	185,2	90,2	30,0
<i>tumanlar:</i>			
Amudaryo	36,3	91,2	5,9
Beruniy	42,7	96,5	6,9
Bo'zotov	8,6	71,9	1,4
Qorao'zak	11,7	86,5	1,9
Kegeyli	6,6	59,2	1,1
Qo'ng'irot	31,9	71,5	5,1
Qonliko'l	9,9	87,9	1,6
Mo'ynoq	39,0	97,0	6,3
Nukus	36,3	91,8	5,9
Taxiatosh	23,5	62,8	3,8
Taxtako'pir	14,4	87,1	2,3
To'rtko'l	74,0	97,4	12,0
Xo'jayli	25,2	92,2	4,1
Chimboy	24,5	96,6	4,0
Shomanay	6,0	94,3	1,0
Ellikqal'a	42,5	98,7	6,9

# Respublikada iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari



*Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlaringin asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.*

# Bino va inshootlar qurilishi



ulushi % da

3,8

2022- yil  
yanvar- fevral

4,8

62,7

54,6

33,5

40,6

2023- yil  
yanvar- fevral



Yirik qurilish  
tashkilotlari



Kichik korxona  
va mikrofirmalar



Norasmiy  
sektor

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 4,8 % ni tashkil etib, 2022- yilning yanvar- fevral oylariga nisbatan 1,0 % punktga ko'paydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2022- yilning yanvar- fevral oylariga nisbatan 8,1 % punktga kamayib, 54,6 % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektoring ulushi esa 2022- yilning yanvar- fevral oylariga nisbatan 7,1 % punktga ko'payib, 40,6 % ni tashkil etdi.

## Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 3,8 % ni tashkil etdi va 2022- yilning yanvar- fevral oylariga nisbatan 3,6 % punktga kamaydi.

Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 96,2 % ni tashkil etdi.

ulushi % da



7,4



92,6




Yirik qurilish tashkilotlari

2022- yil  
yanvar-fevral



3,8



96,2




Kichik korxona va mikrofirmalar

2023- yil  
yanvar-fevral


# Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2022- yilning yanvar- fevral oylariga nisbatan 4,8 % punktga kamaydi va 6,9 % ni tashkil etdi. Qolgan, 93,1 % i kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2022-yilning yanvar-fevral oyiga nisbatan 4,8 % punktga ko'paydi.



# Korxonalar turlari bo'yicha shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari 2023- yil yanvar- fevral oylari

ulushi % da



**Qoraqalpog'iston Respublikasi statistika boshqarmasi  
Investitsiyalar va qurilish statistikasi  
bo'limi**

**Aloqa telefoni: (61) 224-92-14  
(61) 222-75-91**